


**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SURXONDARYO
VILOYATINIG SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI
2023- yil yanvar-iyul
(dastlabki ma'lumot)**




Tel.: 76-225-65-76
www.surxonstat.uz


Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-iyul oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4186,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 17,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 93,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini tashkil etdi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	144,5	176,3	31,8
Neft, ming t.	49,7	45,9	-3,8




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	12,6	13,0	0,4
Chaqiq tosh, ming t.	42,1	8,7	-33,4

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-iyul

FHI,% da



2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3680,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,0 % ini tashkil etdi.


2022- yil
yanvar-iyul

86,4 %

2023- yil
yanvar-iyul





88,0%







O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,4 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,5% (21,6 %) va quyi texnologiyali – 60,9 % (63,6 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 42,3 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,3 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2 %), boshqa no metall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi 11,6 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,2 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi –7,0 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,3 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi – 6,1 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 67,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,5 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 147,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2023- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 9,9 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 22,4 % ga ko'p), 4,1 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (64,1 % ga kam), 1,8 ming tonna lint (57,3 % ga ko'p), 30,9 ming tonna neft bitumi (17,2 % ga kam) ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	8,1	9,9	1,8
Paxta tiviti (lint), ming t.	1,1	1,8	0,7
Neft bitumi, ming t.	37,3	30,9	-6,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	63,3	21,3	-42,0
Saryog', t.	0,8	0,2	-0,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,6	1,2	-0,4

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 83,6 bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi esa, 46,7 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 22,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 171,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 116,2 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 484,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,1 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 613,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 73,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul - oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 134,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 27,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 38,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 106,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 115,4 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1536,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 66,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,6 %, fizik hajm indeksi 134,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 232,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 124,4 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 58,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,1 % ni, fizik hajm indeksi 67,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 257,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 60,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 203,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 56,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 326,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,8 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 % ga kamayganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	177,1	288,2	111,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	20,5	16,0	-4,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	2,7	4,9	2,2
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	16,1	18,0	1,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 32,5 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,9 mlrd. so'm shuningdek, 18,0 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1321,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 31,6 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-iyul

52,1 %

2023- yil
yanvar-iyul

40,9 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-iyul

47,9 %

2023- yil
yanvar-iyul

59,1 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo ulushi 0,7 % (2022- yil yanvar-iyul oylarida 0,6 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Denov tumani 15,5 % ni, 13,4 % Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelib Jarqo'rg'on 11,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (104,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on (191,3 %), Angor (147,6 %) va Denov (142,7 %) tumanlarida qayd etildi.